Dialog kul'tur v russkaze "Kelinika" galiny shiryayevoy: gendernaya i etnokul'turnaya perspektiva..	689
Chernova Tatyana Alekseevna	
Ijtimoiy va gumanitar fanlarning pedagogik ahamiyati: Xo'ja Vali avlodlari misolida	692
Umurov Sharif Rajabovich	



Raqamli ta'lim sharoitida talabalar mustaqil tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslari: didaktik yondashuvlar va ilg'or ilmiy modellarning tahlili.....	695
Umarova Zaxro Abduraxim qizi	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda innovatsion yondashuvga oid dolzorb masalalar	701
Sharofat Juraqulova Baxtiyorovna	
Bo'lajak ingliz tili mutaxassislarining sun'iy intellekt kompetensiyasi.....	704
Ibragimova Hilola Bahodirjon qizi	
Oliy ta'lim muassasalarini talabalari orasida kurash sport turini keng rivojlantirish.....	709
Ochilov Elbek Olimovich	
Muhandislik grafikasi ta'limida talabalarining grafik ishlarni bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish.....	712
Ashirboev A. O., Muxamedjanova G. J.	
Futbol mashg'ulotlarida o'quvchilarda jamoaviy ruhni pedagogik usullar bilan rivojlantirish	715
Axmedjanov Shuhrat Boltayevich	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish	718
Bamullayeva Shodiyona Nasrullo qizi	
Umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarining sifat va samaradorligini oshirishning nazariy hamda ilmiy asoslari	721
Esanov Muzaffar Xoshimovich	
Bo'lajak tarbiyachilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	726
Eshmuminova Dilshoda Iskandarovna	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida pedagogik yondashuvlarning roli	730
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Arab xattotlik san'atining rivojlanishi	733
Mamarajabov Mirqosim Ramazon o'g'li	
Educational Effectiveness of the Question-and-Answer Technique in Working With English Texts	737
Muradulloyeva Sevinch Sohibjon qizi	
Boshlang'ich sinf matematika va geometriya darsliklarida STEAM yondashuvi asosida o'qitishning imkoniyatlari	740
Nazarova Shahzoda	
Boshlang'ich ta'lim o'quv jarayoniga sun'iy intellektni tatbiq etishning metodik asoslari (sinfdan tashqari ishlar misolida)	744
Nigmatullayeva Matluba Izatullo qizi	
Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilarda ijtimoiy faoliytkni shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari	748
Normaxmatov Ilhom Zayniddinovich	
Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining imkoniyatlari	751
Qurbanov Sanjar Rajabboevich	
Sportchi salomatligini baholashda zamonaviy texnologiyalar	754
Samandarov A. X.	
Sport tashkilotlari uchun marketing, e-marketingning foydalari	758
Samatov Javlonbek Abdukayumovich	
Futbol o'yinlari orqali o'quvchilarda jismoniy tarbiya pedagogikasining ahamiyati	762
Sattarov Qarshiboy Norqulovich	
Kichik mакtab yoshidagi bolalarda lingvistik kreativ intellektni shakllantirishning pedagogik shartlari	765
Shodiев Rizamat Davronovich, Jabborova Maftuna Komil qizi	
Ota-onalar bilan samarali hamkorlikni tashkil etishda direktorning strategik yondashuvi	770
Tog'ayeva Shahnoza Shavkatovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tinglash	774
Xodjayeva Nilufar Latipovna	
Talabalarda kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish orqali sog'lom fikrlarni shakllantirish masalasi	778
Xudayberanova Nargisa Qurbanbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati	782
Xursanova Marjona Baxtiyor qizi	
Sun'iy intellekt – bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilari ta'limini modernizatsiya qilish vositasi sifatida	785
Yoqubaliyeva Dilafro'z Payzidin qizi	
Tibbiy pedagogika: kasbiy ta'limda sog'lom turmush tarzi shakllantirishning psixopedagogik asoslari	788
Ziyatov Muhammad Namazovich	
Интерактивное обучение в развитии личности и критического мышления студентов	792
Рысова Галия Байбулатовна	

UMUMIY O'RTA TA'LIM O'QUV DASTURLARINING SIFAT VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY HAMDA ILMIY ASOSLARI

Esanov Muzaffar Xoshimovich
 Oliy ta'limi rivojlantirish tadqiqotlari markazi,
 direktor o'rinosari, p.f.d.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rtta ta'limga o'quv dasturlari sifati va samaradorligini oshirishning nazariy va ilmiy asoslari ko'rib chiqiladi. Unda o'quv dasturlari mazmunini zamon talablarini va xalqaro andozalar asosida modernizatsiya qilish zarurligi ta'kidlangan. Dasturlarni ishlab chiqishda kompetentlik yondashuvi, ularning sifatini baholash mezonlari, shuningdek, takomillashtirish yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limga dasturlari samaradorligini monitoring qilish va baholash usullari tahlil qilingan. O'quv dasturlari mazmunida ilmiy asoslilik va fanlararo integratsiyaning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: baholash, o'quv dasturi, ta'limga sifati, mazmun, metodika, samara, mexanizm, tahlil, tajriba.

Abstract: This paper explores the theoretical and scientific foundations for improving the quality and effectiveness of general secondary education curricula. It emphasizes the need to modernize the content of educational programs in line with contemporary requirements and international standards. Special attention is given to the competency-based approach in curriculum development, quality assessment criteria, and key directions for improvement. The study also analyzes methods for monitoring and evaluating the effectiveness of educational programs. The importance of scientific grounding and interdisciplinary integration in curriculum content is highlighted.

Key words: assessment, curriculum, education, quality of education, content, methodology, influence, mechanism, analysis, experience.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и научные основы повышения качества и эффективности учебных программ общего среднего образования. Подчёркивается необходимость модернизации содержания учебных программ в соответствии с современными требованиями и международными стандартами. Отдельное внимание уделяется компетентностному подходу в разработке программ, критериям оценки их качества, а также направлениям усовершенствования. Анализируются методы мониторинга и оценки эффективности образовательных программ. Подчёркивается важность научной обоснованности и междисциплинарной интеграции в содержании учебных планов.

Ключевые слова: оценка, учебная программа, образование, качество образования, содержание, методика, эффект, механизм, анализ, опыт.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida ta'limga sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida umumiy o'rtta ta'limga sifatini oshirish, o'quv dasturlarini yangilash va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. O'quv dasturlari – bu o'quv jarayonining asosi bo'lib, ular orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va kompetensiyalar shakllantiriladi. Shu bois, ularning nazariy, ilmiy va metodik asoslari puxta ishlab chiqilishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda bugungi kunda ta'limga standartlari va mazmunini takomillashtirish bo'yicha bir qator ustuvor vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmonida mamlakatimizni 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro miqyosda 30 ta ilg'or mamlakat qatoriga kirishiga erishish, uzlusiz ta'limga tizimi mazmunini sifat jihatdan yangilash asosiy maqsad qilib belgilangan¹.

1 <https://lex.uz/docs/4312785>

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish konsepsiyasida xalq ta'limi tizimiga oid qonunchilikda, institutsional rivojlanishda, maktab yoshidagi bolalarga zamon talablariga mos ravishda ta'lim-tarbiya berishda ayrim bo'shliq va kamchiliklarni bartaraf etish, o'quv jarayonini tashkil etishda davlat ta'lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'qitish va baholash metodlari, shuningdek, darsliklar va boshqa o'quv materiallarini tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishi asosiy vazifalardan biri sifatida qo'yildi.

Ta'lim tizimining barcha bosqichlari ichida umumiy o'rta ta'lim alohida o'ringa ega. Bugungi kunda global tendensiylar, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bilimlar iqtisodiyotiga o'tish jarayonlari o'quv dasturlarining zamonaviylashtirilishini talab qilmoqda. Dastur mazmuni o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularni tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, axborotni tahlil qilish kabi zamonaviy kompetensiyalar bilan qurollantirishga xizmat qilishi lozim.

Milliy o'quv dasturi doirasida ishlab chiqilayotgan umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qaroriga muvofiq uzuksiz ta'lim dasturlari majmuasi sifatida tizimga tatbiq etildi.

Milliy o'quv dasturlari 6 komponentdan iborat bo'lib: konsepsiya, standart, o'quv rejasi, o'quv dasturi, metodologiya va baholashdan iborat.

Amaldagi o'quv rejasi kompleks ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv predmetga yo'naltirilgan, o'quvchilarga real hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda Finlyandiya tajribasidan foydalanilmoqda. Islohotlarning maqsadi – fin tajribasidan foydalanish hamda ta'lim tizimi va tez o'zgaruvchan global muammolarga javob topish lozim. Xususan, bilim, o'quvchilarning faolligi va sog'iom turmush hayoti, ta'limdagi tenglik bilan bog'liq masalalar o'qitish bilan birga olib boriladi.

Finlyandiya ta'limining asosiy qoidasi – teng va sifatlari ta'lim bolalar va bolalikni hurmat qilishning, ham shaxslar, ham butun mamlakat uchun barqaror kelajakni barpo etishning eng yaxshi usuli deb hisoblaydi. Ta'limning maqsadi – hayot davomida o'qitishni targ'ib qilish, barcha o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi va sog'iom va farovon hayotni ta'minlash hamda barqaror hayot tarzi bo'yicha ularning kompetensiyalarini rivojlantirishdir.

O'zbekiston Respublikasida Finlyandiya tajribasi asosida ta'lim dasturlarining sifat va samaradorligini oshirish maqsadida maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim dasturlari takomillashtirilmoqda.

Xorijiy davlatlarning ta'lim mazmuni va sifatidan kelib chiqib, O'zbekistonda ta'lim mazmunida mavjud kamchiliklar bo'yicha tegishli omillar aniqlandi. Jumladan:

- har bir fan kesimida o'quv yili yakunida o'quvchi faoliyati natijalariga qo'yiladigan talablar hamda uni baholash mezonlari mavjud emasligi;
- o'qitish metodikasi va baholash tizimi kompetensiyaviy yondashuvga asosan ishlab chiqilmaganligi;
- umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisi egallashi lozim bo'lgan kompetensiyalarni baholash tizimi yaratilmaganligi;
- shuningdek, o'quvchi 4-sinf (10 ta fan o'qitiladi)dan 5–9-sinf (18 ta fan o'qitiladi)larga o'tish davrida o'rganiладиган fanlar sonining keskin oshib, 8 taga ko'payishi ularning o'zlashtirishida bo'shliqlar, o'qishning qiyinligidan zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkinligi va natijada ularda o'qishga bo'lgan motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishda ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab bitiruvchilarining oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga tayyoragarlik ko'rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida 2019–2020-o'quv yilining 3-choragidan boshlab, 10–11-sinflarda variativ o'quv rejalarini tajriba-sinovdan o'tkazish ishlari boshlandi.

2020–2021-o'quv yilda esa mazkur tajriba-sinov 7–11-sinflar uchun amalga oshirildi. Mazkur o'quv rejaning tajriba-sinovni tashkil etishda kutilayotgan natijaga erishish uchun belgilangan tanlov yo'nalishlaridagi fanlarga ajratilgan soatlarda o'qitishning ilg'or usullaridan foydalanish belgilangan.²

Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonlari bilan O'zbekiston ta'lim tizimi uchun bir qator yangi maqsadlar ilgari surildi.

2 Xalq ta'lifi vazirligining 2019-yil 28-dekabrdagi 405-sonli buyrug'i.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lil sohasining 2019–2023-yillarga mo'ljallangan rejası mavjud o'quv dasturini yanada tahlil qilish va qayta ko'rib chiqishga mo'ljallangan bo'lib, bunda "o'quvchilarning bilim olish va qo'llash ko'nikmalarini oshirishdan ko'ra" bilimlarni "to'g'ridan-to'g'ri berishga ko'proq e'tibor qaratilayotganligi" aniqlandi. Bundan tashqari, Jahon banki tomonidan 2018-yilda O'zbekistonda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar bo'yicha o'tkazilgan so'rovda, Toshkent viloyatidagi 60 ga yaqin maktablar qamrab olinib, 9-sinf o'quvchilarining "hissiyotlarni boshqarish" va "imkoniyatlarni kengaytirish" kabi sohalarda o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'nikmalarini o'rtacha darajadan past baholadilar. Ushbu omillar o'z-o'ziga ishonch, moslanuvchanlik, stressni boshqarish va sinovlarni yengishdag'i chidamlilikda gender taqsimlanishining noto'g'ri taqsimlanganligini ko'rsatadi.

O'quv dasturlarining sifat ko'rsatkichlari

O'quv dasturlarining sifatini aniqlovchi asosiy mezonlar quyidagilardan iborat:

- Mazmunning dolzarbliji va yangiligi;
- Pedagogik moslik va yosh xususiyatlari mosligi;
- O'quvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini hisobga olganligi;
- Amaliyatga yo'naltirilganlik va hayot bilan bog'liqligi;
- Ta'limda barqarorlik va izchillik tamoyillariga asoslanganligi.

O'quv dasturlarining ilmiy asoslanganligi ularning chuqur nazariy g'oyalarga tayanganligini bildiradi. Pedagogika, psixologiya, didaktika va boshqa fanlarning asosiy tamoyillari dastur mazmuniga singdirilishi kerak. Bundan tashqari, fanning ichki mantiqiy tizimi, tushuncha va kategoriya tuzilmasi, metodologik yondashuvlar hisobga olinishi muhimdir.

Demak, amaldagi o'quv dasturi o'ta murakkab va mavzuga yo'naltirilganligi, u o'quvchilarga real hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada bermayapti. Bu esa, O'zbekiston Respublikasi hukumati YUNISEF bilan kompetensiyaga asoslangan ta'lim uchun keng imkoniyatlarni umumiylashtirishni amalga shuningda. Xalq ta'limi vazirligi o'quv-uslubiy materiallar, jumladan darsliklarni chop etish va o'qituvchilar malakasini oshirish hamda baholash jarayonini takomillashtirish kabi salohiyatni oshirish bo'yicha uzluksiz ishlashi zarurligini ko'rsatmoqda.

YUNISEFning "Ta'limdi qo'llab-quvvatlash dasturi doirasida" O'zbekiston hukumati milliy ta'lim tizimi duch kelayotgan muammolarni hal etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini taqdim etdi. Ular orasida o'rta ta'lim tizimidagi o'quv dasturlarini isloq qilish choralarini ham bo'lib, bu o'quv dasturining sifati o'quvchilarning bandlik salohiyatini oshirishning muhim omili ekanligini ko'rsatmoqda. O'quv dasturlarini isloq qilish asosiy kompetensiyalarga, mehnat ko'nikmalariga, yumshoq ko'nikmalarga va yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalariga ko'proq e'tibor qaratishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, o'quv dasturlarini isloq qilish o'quvchilar va o'qituvchilar uchun mavjud ta'lim yuklamalari kamaytirishga, o'qituvchilarga har yili o'quv dasturlarini yetarlicha yoritish uchun imkoniyatlarni taqdim etish va shu orqali uzatiladigan va yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni rag'batlantiruvchi keng qamrovli ta'lim berish usulini shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv jarayonida sifatni ta'minlashda o'quv-uslubiy ta'minotsiz erishib bo'lmaydi. Shu sababli islohotlarning bir qismi yangi o'quv-uslubiy materiallarini ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, yangi kompetensiyalarga asoslangan yo'nalishni aks ettirish uchun keng ko'lamda moslashtirishga qaratilgan. Shu o'rinda, o'qituvchilarining kasbiy malakalarini oshirish, hamda imtihonlar, baholash va o'quv natijalariga umumiylashtirishni yondashuvni o'z ichiga olgan ta'lim dasturining yangi yo'nalishiga to'liq moslashtirish maqsadida magistrlik dissertatsiyasida asosiy vazifalar belgilangan.

Yangilangan o'quv dasturlari va uslubiy materiallar bo'yicha darsliklar yaratish hamda nashr etish tizimi ham qayta ko'rib chiqiladi. Yangi didaktik va uslubiy qo'llanmalar, zamonaviy va kompetensiyaga asoslangan darsliklar ishlab chiqilib, xalqaro darajadagi ilg'or amaliyatga moslashtirish uchun dunyoning yetakchi nashriyotlari bilan hamkorlik qilinadi.

Dasturlarni ishlab chiqishda kompetensiyaviy yondashuv

Tahliilar asosida, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, muayyan DTS, o'quv dastur, o'quv reja, baholash tizimini yaratish va o'qitish metodikasini tubdan takomillashtirish – o'quvchilarda hayotiy intellektual, shaxsiy, ijtimoiy va emotsiyonal ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xalqaro tajribalar asosida DTS, o'quv dastur, o'quv reja, baholash tizimini takomillashtirilishi o'qitish metodikalariga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- o'quvchilarda liderlik sifati, qobiliyati va kelajakda insoniyat, xalq va jamoani ezgu yo'lda birlashtira olish ko'nikmalarini shakllantirish;



- vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg'usini, bag'rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyat-larga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda qat'iy ishonchni shakllantirish;
- o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish;
- tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rgatish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish;
- ta'lif berishning hamda bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek, ta'lif dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish;
- o'quvchilarni kelajak kasblarga bo'lgan qiziqishini orttirish, ularda yetakchilik ko'nikmalari va notiqlik san'atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llash malakasini oshirish;
- o'quvchilarning umumta'lif fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqlarda munosib ishtirokini ta'minlash;
- o'quvchilarning iste'dodi va qobiliyatini har tomonlama rivojlantirish, ularning ilm-fanni egallashga bo'lgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash, iqtidorini ro'yobga chiqarish, uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta'lif xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;
- o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ularni barkamol, jismonan va ruhan sog'lom shaxs sifatida Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, bolalarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, fidoyilik, keng dunyoqarashga ega komil inson bo'lishga intilish tuyg'usini shakllantirish;
- o'quvchilarda boy adabiyotimiz va ona tilimiz bilan ongli ravishda faxrlanish, ajdodlarga munosib bo'lish, ularda ona xalqimiz tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirish;
- o'quvchilarda yon-atrofda va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga to'g'ri munosabat bildirish ko'nikmasini, mafkuraviy immunitetni shakllantirish va dunyonи ma'rifikat, ilm-zakovat, qalam bilan olish mumkinligi haqidagi g'oyani ularning qalbiga singdirish;
- o'quvchilarga xalq og'zaki ijodi, boy va o'lmas yozma adabiyotlarni chuqur o'rgatish va uning mazmun-mohiyatini tahlil qilish, nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo xalqlari uchun sevib o'qiladigan asarlar yaratish, jahon adabiyoti durdonalaridan tarjimalarni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarga chet tillarni chuqur o'rgatish, aniq va tabiiy fanlarni yuqori darajada o'rgatish orqali ularda badiiy va ilmiy adabiyotni xorijiy tillarga professional tarjima qilish malakasini shakllantirish;
- o'quvchilarda san'atga bo'lgan qiziqishlarni, qarashlarni, qobiliyatlarni tanqidiy rivojlantirishni qaror toptirish;
- o'quvchilarning ijodiy g'oyalarni rivojlantirish orqali shaxs, jamiyat va mamlakat farovonligini qo'llab-quvvatlay olish ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarda vatanparvarlik, Vatanga beqiyos muhabbat va sodiqlik tuyg'ularini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan chuqur hurmatni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lif-tarbiya jarayoni sifatini oshirish;
- ta'lifning keyingi bosqichi uchun zarur bo'lgan fanga oid bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlanish;
- bitiruvchilarning davlat tili va bir necha chet tillarini mukammal o'rganishini ta'minlash;
- axborot, tajriba va g'oyalarni almashish, atrofimizdagi olamni o'rganish, tushunish va unda samarali ishtiroy etish maqsadida raqamli axborotlashtirishdan foydalanish ko'nikmasini rivojlantirish;
- muayyan fikrlash qobiliyatlarini, shuningdek, aqliy va metakognitiv anglashni o'z ichiga olgan holda, o'quvchilarda intellektual rivojlanish bilan bog'liq bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish;
- mavjud imkoniyat va sharoitlarda innovatsion g'oyalarni yaratish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quvchilarni egallagan bilimlaridan tashqarida fikrlashda tavakkal qilishga o'rgatish bo'lishi kerak.

Zamonaviy ta'lilda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvga ko'ra, o'quv dasturlari nafaqat bilim berish, balki ko'nikma va malakalarni shakllantirish, ularni turli hayotiy holatlarda qo'llay olishga o'rgatish vazifasini bajaradi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan dasturlar o'quvchilarning

o'zlashtirish darajasini oshirishga, ularni faol, tashabbuskor va ijtimoiy mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quv dasturlarini takomillashtirish yo'nalishlari

Takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- fanlararo integratsiyani kuchaytirish;
- o'quv yuklamasining maqbullashtirilgan hajmini belgilash;
- elektron resurslar va raqamli texnologiyalarni o'quv dasturiga integratsiya qilish;
- baholash mezonlarini aniqlashtirish va kompetensiyaviy baholashni joriy etish;
- ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi topshiriqlar ulushini oshirish.

Ta'lim sifatini monitoring qilish va tahlil qilish

O'quv dasturlarining samaradorligini baholash uchun doimiy monitoring va tahlil zarur. Bu jarayon quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- o'quvchilarning yutuqlari va natijalarini tahlil qilish;
- o'qituvchilar fikri va amaliy tajribasini hisobga olish;
- xalqaro baholash tizimlari bilan taqqoslash (masalan, PISA);
- dastur asosida erishilgan natijalarning ijtimoiy foydasi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumiy o'rta ta'limgagi o'quv dasturlarining samaradorligi ta'lim sifatining bosh mezoni hisoblanadi. Dasturlarni yangilash, ularning ilmiy va metodik asoslarni chuqurlashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan dasturlarni ishlab chiqish orqali biz zamonaviy jamiyat ehtiyojlariiga mos ta'lim tizimini shakllantira olamiz. Ta'limgagi barqaror rivojlanish, innovatsiyalar va raqamli transformatsiya o'quv dasturlarining doimiy takomiliga bog'liq. Shuning uchun bu yo'nalishda izchil va tizimli ish olib borish dolzarb hisoblanadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha mo'ljallangan Ta'limgani rivojlantirish konsepsiysi. – Toshkent, 2019.
2. Nishonov, F., Nishonova, S. Umumiy o'rta ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
3. Turaev, N. va boshqalar. Pedagogika: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2021.
4. Bobomurodov, Sh. Ta'lim sifatini baholash metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
5. Hasanboyeva, O. Ta'limga innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: TDPU, 2021.
6. Majidova, N. Didaktika assoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
8. Мирзаева, Ф. О. Формирование культуры межличностных взаимоотношений у будущих учителей // International Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education, 2018.
9. Мирзаева, Ф. О. К проблеме расширения современного коммуникативного пространства // Философские и методологические проблемы исследования российского общества. – 2020. – С. 277–281.
10. Mirzayeva, F. Kredit modul tizimining amaliyotga joriy etilishi // Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – Т. 2, №11. – Б. 479–484.
11. Narzullaevna, S. B. The influence of Islam on the formation of women's education system in the Middle Ages // JournalNX. – Б. 204–206.
12. Мирзаева, Ф. О. Развитие межличностных взаимоотношений у будущих учителей в условиях современности // Наука и образование сегодня. – 2018. – №2(25). – С. 57–58.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.